**“Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyati Komplayens xizmati tomonidan 2024-yil I chorak davomida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash yo‘nalishida amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida**

# H I S O B O T

“Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyatining 2023-yil 18-dekabrdagi 725-sonli buyrug‘i asosida Jamiyatda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash tadbiri o‘tkazilgan. Baholash natijalariga ko‘ra, Jamiyatda mavjud jami **947 ta** funksiyalarning **3 tasi** “yuqori”, **45 tasi** “o‘rta” va **899 tasi** “past” darajadagi xavf-xatarlar baholanib, ularni oldini olish va bartaraf etish yuzasidan 2024-yil 20-fevralda **46** banddan iborat korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish, kelgusida oldini olish va korrupsiyaga qarshi kurashish Dasturi, Korrupsiyaviy xavf-xatarlarning umumlashtirilgan Xaritasi va korrupsiyaviy xavf-xatar yuqori bo‘lgan lavozimlar ro‘yxati hamda korrupsiyaga moyil bo‘lgan munosabatlar elektron reyestri shakllantirib, tasdiqlangan.

2024-yil 1-aprel holatiga Dasturning **15 ta** bandi ijrosi ta’minlandi va qolgan bandlar ijrosi nazoratga olindi. Dastur bandlari ijrosi ta’minlanganligi natijasida **5 ta** yo‘nalish tartibga solindi, **3 ta**si avtomatlashtirilmoqda.